

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Normatova Farida Abduhakimovna

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malaka
oshirish “D” guruh kursi tinglovchilari
normatovafarida30@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi yoritiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyada didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar, kuzatish, tajriba, suhbat va amaliy mashg‘ulotlardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, kichik yoshdagi o‘quvchilar, pedagogik metodika, didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar, ekologik ong, tabiatni muhofaza qilish, ekologik ong.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология формирования экологической культуры у учащихся младшего школьного возраста. Показано эффективное использование дидактических игр, интерактивных методов, наблюдения, эксперимента, беседы и практических упражнений в экологическом образовании.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, начальное образование, учащиеся младшего школьного возраста, педагогическая методология, дидактические игры, интерактивные методы, экологическая осведомленность, охрана природы, экологическая осведомленность.

Abstract: This article discusses the methodology for forming an ecological culture in young students. It shows the effective use of didactic games, interactive methods, observation, experiment, conversation and practical exercises in ecological education.

Keywords: ecological culture, ecological education, primary education, young students, pedagogical methodology, didactic games, interactive methods, ecological awareness, nature protection, ecological awareness.

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar insoniyat hayotining muhim masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o‘zgarishi kabi muammolar insondan tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni talab etadi. Shu bois ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ekologik tarbiyani aynan kichik yoshdan boshlash muhim, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga nisbatan dastlabki tushunchalar, qadriyatlar va xulq-

atvor me'yorlari shakllanadi.

Atrof-muhit tabiat hodisalarini va jarayonlar haqida ilmiy tasavvur hosil qilishni, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni amalga oshiradi. Ekologik bilimlar asosan tabiatshunoslik, biologiya, geografiya va keyinchalik "Tabiiy fan" mazmunida berilishi belgilandi.

Tabiatdagi oddiy hodisalarni kuzatish va tushuntirish ,tajribalar orqali xulosa chiqarishni, tabiiy jarayonlarga oid bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishni o'rganish, ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabat javob berishni shakllantiradi. Ushbu maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda ekologik madaniyat tushunchasi

Ekologik madaniyat — bu shaxsning tabiatga ongli, ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatini ifodalovchi bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuasidir. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ekologik madaniyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Tabiat haqidagi dastlabki bilimlar, ekologik ong va tafakkur, tabiatni asrashga qaratilgan xulq-atvor, ekologik qadriyatlar va mas'uliyat hissi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik ahamiyati

Ekologik tarbiya o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki shaxsiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Jumladan, mehr-shafqat, tejamkorlik, mas'uliyat, jamoaviylik kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish quyidagi pedagogik vazifalarni hal etadi.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 – apreldagi 187 – sonli qaror bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari.”
2. Sultonov S., Qodirov A. Ekologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2017-y.
3. Boshlang'ich sinflar uchun “Tabiiy fanlar” II qismi darsliklari. – Toshkent: “Novda Edutainment” 2023-y.
4. Hasanov A. Ekologik tarbiya asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015-y.
5. Boshlang'ich sinflar uchun “Tarbiya” darsliklari. – Toshkent: “Novda Edutainment” 2023-y.
6. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2022-y.

Elektron ta'lim resurslari:

www.Ziyonet.uz

www.Eduportal.uz